

PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA DTS VA O'QUV DASTURLARINI TAHLILI

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi

3- kurs talabasi

Pardayeva Maxliyo Otabek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik kompetentlikning mazmuni, davlat ta'lim standartlari (DTS) hamda o'quv dasturlarining o'qituvchi kompetentliklarini shakllantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, DTS va o'quv dasturlarini tahlil qilishning samaralari hamda ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Kompetentlik, DTS, dasturlar, ilmiy asos, o'quv, o'qituvchi, ko'nikma, pedagog.

Asosiy qisim: DTS- bu davlat tomonidan belgilangan ta'lim tizimining asosiy talablarini, o'quv yurtlarida ta'lim berish jarayonini muvofiqlashtirish va uni tartibga solish uchun ishlab chiqilgan normativ hujjatlardir. DTS talablarida belgilangan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiya asosida o'qitish, kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish kabi fundamental talablarni o'rganish. O'qituvchidan talab qilinadigan bilimlarni (nazariy), malakalarni (amaliy) va ko'nikmalarni (ijobiy) aniqlash. DTS talablarini amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan aniq yo'nalishlar, modullar, mavzular va baholash mezonlarini o'z ichiga oladi. U DTSda belgilangan maqsadlarga erishish uchun amaliy yo'l xaritasi vazifasini o'taydi. Dasturlarning tahlili o'qituvchiga o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish, analiz qilish va sintez qilish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Pedagogik kompetentlik – bu o'qituvchining nazariy bilimlari, metodik tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va shaxsiy fazilatlari majmuidir. U quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. Metodik kompetentlik-ta'lim metodlari, texnologiyalari va o'quv materialini samarali yetkazish usullarini bilish.
2. Psixologik kompetentlik -o'quvchi shaxsini o'rganish, motivatsiya yaratish va individual yondashish.

3. Kommunikativ kompetentlik-samarali muloqot,jamoani boshqarish,hamkorlikda ishlash.
4. Axborot-kommunikatsiya kompetentligi-AKT vositalaridan foydalanish.
5. Kasbiy-refleksiv kompetentlik-o'z faoliyatini tahlil qilib takomillashtish.

O'quv dasturi-bu ta'lim tizimida o'qitiladigan predmetlar bo'yicha ilmiy va pedagogik maqsadlarni amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan reja va dasturdir.bu pedagogning o'zining kompetentligini rivojlantirishni ta'minlaydi.O'quv dasturlari esa pedagogga metodik va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan asosdi beradi.Ular har bir o'quvchi uchun ta'lim jarayonini moslashtirish imkonini yaratadi.O'qituvchi o'z faoliyatida o'quv dasturini asos qilib olgan holda,turli pedagogik texnologiyalari va metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarni rivojlantiradi.O'quv dasturi va DTSni tahlil qilganda, ularning pedagogik maqsadlari va belgilangan natijalar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetentliklarining rivojlanishiga qanchalik mos kelishini baholash kerak.

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi -zamon talablari darajasida bilim,ko'nikma va kompetensiyalarga ega bo'lgan pedagog kadrlarni tayyorlashdir.Pedagogik kompetentlik bugungi ta'lim tizimida eng muhim talab va me'yorlardan biri sifatida qaraladi. Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish,o'quvchilarning bilim darajasini yuqorilash, pedagoglarning professional malakasini doimiy ravishda yangilash – bu barcha omillar pedagogik kompetentlikni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladi.Pedagogik kompetentlik o'qituvchining o'quv jarayonini samarali tashkil etish,o'quvchilarga ilm-fan, madaniyat va jamiyat haqidagi bilimlarni berish, shuningdek,ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash qobiliyatiga asoslanadi. Bu kompetentlikni shakllantirishda, albatta, bir nechta asosiy tamoyillarni belgilab beruvchi hujjatlar muhim rol o'ynaydi. Bunday hujjatlar orasida DTS va o'quv dasturlari alohida o'rin tutadi. DTS va o'quv dasturlarining tahlili, pedagogik kompetentlikni rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni ochadi, o'qituvchilarni zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodikalari bilan tanishtiradi. Shu bilan birga, bu

tahlil o'quv jarayonini optimallashtirish, o'quvchilarning bilim olishda muvaffaqiyatini ta'minlash, shuningdek, ta'lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etishga imkon yartadi. DTS va o'quv dasturlarini atroflicha tahlil qilish bugungi kunda pedagogik ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Milliy ta'lim tizimini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish, o'quv- metodik materiallarni takomillashtirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqibiy va ijodiy tafakkurni shakllantirish uchun DTS va o'quv dasturlarining mazmunini, tuzilmasini va tatbiq etish mexanizmlarini o'rganish zarur. Ushbu tahlil orqali zamonaviy o'qituvchining professionalligini oshirish, kasbiy malakasini rivojlantirish va ta'lim sifatini ta'minlashga erishish mumkin.

Xulosa : DTS va o'quv dasturlari pedagogik kompetentlikni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular o'qituvchilarga ta'limni samarali tashkil etish va o'quvchilarga zarur bilim, ko'nikma va kompetentliklarni berish uchun zarur asoslarni yaratadi. DTS va o'quv dasturlarini tahlil qilish pedagogik kompetentlikni shakllantirishning asosiy bosqichidir. Bu tahlil o'qituvchilarni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy va axloqiy jihatdan ham tayyorlab, ularning zamonaviy ta'lim tizimida samarali faoliyat yuritishlariga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun.-Toshkent, 2020.
2. DTS – umumta'lim fanlari bo'yicha 2020-2024 yillarda tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar to'plami.-Toshkent, XTV nashrlari.
3. Yo'ldoshev J, Hasanboeva O. Pedagogika.-Toshkent:"Fan", 2016.
4. Xodjayev Sh. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-Toshkent: O'qituvchi, 2014.
5. Zimnyaya I.A. Pedagogik kompetentlik nazariyasi.-Moskva: Academia, 2014.